

PAPER

YURIDIK MATNLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI VA TARJIMADAGI AHAMIYATI

Sheraliyeva Moxinur Xoldorali qizi ^{1,*}

¹ Oriental Universiteti Lingvistika ingliz tili

* sheraliyeva1@gmail.com

Abstract

Maqolada yuridik matnlarning lingvomadaniy tadqiqi va tarjimadagi ahamiyati o'rganiladi. Yuridik matnlar faqatgina huquqiy ma'lumotlarni emas, balki o'z davri va jamiyatining madaniy, ijtimoiy va siyosiy xususiyatlarini ham aks ettiradi. Ushbu maqola, yuridik matnlarni tarjima qilishda lingvistik va madaniy omillarning o'zaro bog'liqligini tahlil qiladi. Tarjimada madaniy tafovutlar, huquqiy tizimlar orasidagi farqlar va lingvistik xususiyatlar qanday ahamiyatga ega ekanligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yuridik matnlarning madaniy kontekstini hisobga olish zarurligi va uning tarjimadagi o'rni haqida fikrlar taqdim etiladi.

Key words: yuridik matn, lingvomadaniy tadqiq, tarjima, madaniy kontekst, huquqiy tizim, lingvistik xususiyat, madaniy tafovutlar.

Kirish

Tarjimada lingvomadaniy aspektlardan to'g'ri foydalanish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda esa lingvomadaniyatshunoslikka etnolingvistikaning bir tarmog'i sifatida emas, balki mustaqil ilmiy soha sifatida qaralmoqda. Etnolingvistikaning lingvomadaniyatshunoslik bilan farqli xususiyatlarini aniqlashga urinib tadqiqotlar natijasida etnolingvistikani hozirgi kundagi ma'lumotlar, axborotlar mabaida tarixiy xususiyatlarini izlab, tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Ya'ni muayyan etnosning tarixiy

madaniy hayotiga tegishli xususiyatlarini zamonaviy materiallarda tahlil qiladi. Lingvomadaniyatshunoslikda esa ruhiy madaniyat prizmasi orqali tarixiy va zamonaviy lessoniy faktlar tahlil qilinadi. Xususan, lingvomadaniy tadqiqotlarda senxroniya va diyaxroniya masalalari ham tadqiq qilinadi.

Lingvomadaniyat – bu tilshunoslik va madaniyatshunoslikning tutashgan qismini o'rganadigan soha, tilda muhirlanib qolgan va aks etadigan millatning madaniy voqealiklarini predmet sifatida o'zida mujassam etadi. Lingvistikaning mustaqil yo'nalishi sifatida lingvokulturologiya XX asrning 90-yillarida fan sifatida vujudga kelgan

Compiled on: October 3, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to International Journal of Science and Technology for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

bo'lib, – lingvokulturologiya atamasi birinchi marta Moskva Frazеologik maktabining vakillarining ishlarida paydo bo'lgan.

Bu yo'nalishning alternativ nomlanishi sifatida o'zbek tilida –lingvomadaniyatshunoslik, atamasi ham paydo bo'lgan. Lingvomadaniyatda dialog, o'zaro muloqotda aks etadigan til va madaniy birliklari asosiy predmet hisoblanadi. Lingvomadaniy an'analarda til madaniy quroli, uning bir qismi, shuningdek, madaniyatning bir avloddan avlodga axborot tarzida saqlanib qolishi manbai hisoblanadi.

Lingvomadaniy konsept Lingvomadaniy konsept etnomadaniy xususiyatga ega bo'lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. U mananiy universalialarni ifodalaydi. Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud bo'ladi, u o'zida kognitivratsional va ematsional-psixologik mazmunni biriktiradi. Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o'taydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakillanishiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi. Lingvokulturologiyada madaniyat konseptlari alohida tadqiq etiladi. Madaniyatning asosiy konseptlari jamoaviy til ongida muhim ahamiyatga xususan, vijdon, taqdir, qismat, iroda, gunoh, qonun, erkinlik, ziyolilar, vatan va h.k tushuniladi. Lingvokulturologik tadqiqotlarda lingvistik, kulturologik, sotsiologik(content-tahlil, freym tahlil metodika), etnografik (tasvirlash, tasniflashva h.k.) metodlardan istifoda etilganligini ko'rish mumkin. Aksariyat lingvokulturologik tadqiqotlarda mazkur metodlar turli tamoyillar va tahlillar bilan bir-birini o'zaro to'ldirib, lingvokulturologiya murakkab obyekt bo'lgan til va madaniyatning o'zaro munosabatlarini tadqiq etish imkonini berganligi ta'kidlanadi.

Turli lingvomadaniyatlarda muayyan bir narsaning, masalan, hayvonning turg'un o'xshatish etaloni sifatida qo'llanilishi kuzatish mumkin. Masalan aksariyat tillarda tulki –ayyorlik, aldoqchilik, yolg'onchilik ramzi, etaloni sifatida ishlatiladi: tulkidek ayyor – хитрый как лиса (Ruscha), as false as fox (inglizcha), you chorom(koreyscha). Yoki o'zbek tilining o'ziga xos o'xshatishlari sifatida – qo'ydek yuvosh, arvohday ozg'in, moldek ovqat yeydi va h.k.ni

ko'rsatish mumkin.

Lingvomadaniyatlarning aksariyatida turg'un o'xshatishlarni obraz va uning mazmuni jihatidan bir-biriga muqobilligi, muqoyasa obyektlarning o'xshashligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, –befahimlik, beso'naqaylik, qo'pollik ayiqday (o'zbekcha), ayi gibi (turkcha), ko'm kathi (koreyscha), kak medved (ruscha); – kuchli, qo'rqmas, –mardlik, jasorat arslon kabi (o'zbekcha), aslan gibi (turkcha); – semirmoq, –ko'p ovqat yemoq cho'chqaday (o'zbekcha), As fat as a pig (inglizcha), tweji kathi (koreyscha); – ko'p ovqat yemoq molday (o'zbekcha), so' kathi (koreyscha); –befahm eshakday (o'zbekcha), eshek gibi (turkcha), kak osel (ruscha) etalon vositasida ifodalanadi. O'zbek lingvomadaniyati uchun ayollarning yuzini oyga, olmaga, ba'zan kulchaga, inglizlarda olchaga, atirgulga (as red as a cherry/ rose), xitoy va koreyslarda o'rikka, majnuntol novdasiga qiyoslash me'yor holda hisoblanadi.

Xitoy va Koreyada ayollarni ilonga o'xshatilsa, ular xursand bo'lishadi. Chunki, mazkur lingvomadaniyatlarda ilon donolik, go'zallik epchillik ramzi hisoblanadi. Ayni tushuncha turli lingvomadaniyatlarda o'zgacha ifoda vositalari, ya'ni boshqacha o'xshatish etalonlari vositasida aks ettirilishi mumkin. Masalan, bquvvat kishilarni o'zbeklar filga, inglizlar otga muqoyasa qilishadi: filday baquvvat, strong as a horse. Yoki o'zbeklar tinimsiz ishlaydigan, mehnat qiladigan kishilarni chumoliga (chumoliday), turklar esa ariga o'xshatadilar (ari gibi).

Turli lingvomadaniyat ramzlarning qiyosiy tahlili Ramz – tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksidir. Har bir insonda, har qanday madaniyat vakilida ichki dunyoni o'ziga xos qabul qiluvchi – tug'ma mexanizim mavjud bo'ladi. Bu – tug'ma mexanizim tashqi dunyoni ramzlar, timsollar orqali – qayta ishlab qabul qilishga moslashgandir. Ramziy etalonlar madaniy jihatdan tamg'alangan bo'ladi. Binobarin, turkiy xalqlar lingvomadaniyatida bo'ri – jasurlik, rus lingvomadaniyatida vahshiylik etaloni bo'lib keladi. A.K.Bayburin: – Ba'zi narsalarning – moddiy madaniyat sohasiga, boshqalarning –ma'naviy madaniyat sohasiga kiritilishi birinchi navbatda ularga turli semiotik maqom berilganini ko'rsatadi deb yozadi. Bu o'rinda takidlash joizki,

ayrim tillarda ramziy etalonlar bir-biriga mos keladi: qo'y – yuvoshlik etaloni, chumoli va ari – mehnatsevarlik etaloni. Demak, ramzlar obrazlilik, motivlashganligi, ko'p ma'noliligi bilan tavsiflanadi.

Lingvomadaniyshunoslik va etnolingvistika Lingvomadaniyatshunoslik xalqlarning turmushi va madaniy o'ziga xos xususiyatlarini, ularning kelib chiqishi, joylashishi, madaniy-tarixiy o'zaro aloqalarini o'rganuvchi etnografiya va tishunoslik fanlari bilan ayrim masalalarda bir-biriga yaqinlashadigan soha etnolingvistika bilan bog'liq. Etnolingvistik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi lingvistik, entomadaniy hamda etnoruhiy (etnopsixologik) omillarning tilda faoliyati va rivojini o'rganadi. afzallikka va madaniy yo'l-yo'riqlar (normalar va umumbashariyat qadriyatlari tizimi) birligini lisoniy va madaniy mazmunda bir butun tuzilish tarzida ifodalaydigan tizimli tilning va madaniyatning o'zaro aloqalari hamda o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi kompleks umumlashtiruvchi ilmiy fan hisoblanadi. Linvomadaniyatshunoslik o'ziga xoslikni aniqlash uchun kommunikatsiyaga lingvo-kognitiv yondashuvni qo'llash tavsiya qilinadi, chunki bu yondashuv uni ham umumlingvistik aspekt, ham milliy aniqlangan komponent sifatida tahlil qilish imkonini beradi. tadqiqotlarini tahlil qilib, shunday xulosaga keladiki, —muallif ikkala tadqiq qilinayotgan fanlar o'rtasida aniq chegara qo'ymaydi: ulardagi muammolarning majmui umumiyiligi ta'kidlanadi, uning ham, boshqasining ham paydo bo'lishiga nazariy asos deb SepirUorfning frazi hisoblanadi, tadqiqot metodlarida farqlar ochib berimaydi. Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshlagan.

Professor N.Mahmudovning — Tilning mukammal tadqiqi va yo'llarini izlab... nomli maqoloasida lingvokulturologiya, umuman, antroposternik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berilgan. Lingvomadaniy birliklar Lingvomadaniy birliklar tadqiqoti tahlilini o'tkazish bilan E.A.Naximova: lingvomadaniy birliklar tadqiqotida u yoki bu yo'nalishga munosibligiga qarb butunlay birliklarni tadqiq qilishda turlicha yo'nalishlar – grammatik, struktursemantik, stilistik, ritorik, psixolingvistik, sotsiolingvistik,

kognitiv-diskursiv, onomastik, linvomadaniy va h.k. yo'nalishlardan foydalanish mumkin, degan fikrni bildiradi (Naximova, 2001). Lingvomadaniy birliklar tadqiqotida nafaqat yo'nalishlarni, balki ularga yondashuvni ham hisobga olish muhim hisoblanadi.

Tarjima normalariga muvofiq tarzda leksik, grammatik, stilistik uslublarni o'z o'rnida qo'llay olish tarjima sifatini yaxshilaydi. Hattoki rangni ifodalaydigan so'zlarda ham har xil xalqning madaniy an'analari ko'zga tashlandi, qizil rangni olib qaraydigan bo'lsak, AQSH da – havf, Fransiyada —aristokratizim, Hindistonda hayot va ijod, Yaponiyada – g'azab, Xitoyda esa —baxt timsolidir. Bundan shuni aytish mumkinki rang tushunchasi ijtimoiy madaniylik bilan birga ematsionallikni ham ifodalaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytdagnda, lingvomadaniyatning o'rni badiiy tarjimada beqiyos hisoblanadi. Umumiy oladigan bo'sak tarjimon lingvomadaniyatdan oqilona foydalanmasa hech narsaga erisha olmaydi yan'ni badiiy narjimoni to'lganli tarjima qila olmaydi. Lingvomadaniyatshunoslik har ikkla sohaga taaluqli madaniyat va til haqidagi fandir. Bu bilimlarning birligini anglatib, millatning mentaliteti, madaniy xususiyatlari va ularning tilda namayon bo'lishini ifodalyadigan bu sohaning birlamchi maqsadi tilni o'rganish, madaniyatni sqalash hamda ularni mujassamlashtirishdir.

Yuridik matn tuzishda so'z tanlash, zarur so'zni boshqa ma'nodagi so'zlar qatoridan ajratib olish muhim ahamiyatga ega. So'zlarni nutqning turiga, nutqning kimga atalganiga va maqsadiga ko'ra tanlash lozim: huquqshunos-publitsist nutq uchun siyosiy-falsafiy ruhda o'tkir, ta'sirchan so'zlar, ilmiy nutq uchun termin xarakteridagi atama so'zlar, badiiy nutq uchun esa badiiylik bo'yog'iga ega bo'lgan, obrazlilikka xizmat qiladigan so'zlardan foydalanadi. Rasmiy nutqning turli hujjatlar ko'rinishlaridagi til xususiyatlari ham bir-biridan birmuncha farq qiladi. Tanlangan so'z adabiy nutqqa xos, nutq madaniyati me'yorlari doirasida bo'lishi lozim, chunki har qanday nutq – tarbiyalovchi omil, u eshituvchi va o'quvchilarda to'g'ri so'zlash va to'g'ri yozish ko'nikmalarini, savodxonlikni ham yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shukurov E. Matn va tarjima. Toshkent: Akademyanashr, 2018.
2. Ganieva D. Lingvomadaniyatshunoslik asoslari. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2016.
3. Abdullayeva G. Tarjimada madaniyatlararo omillar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019
4. O'zbekistondagi sud hujjatlari va ularning tarjima arxivlari.
5. Hamidov, F. (2016). Sud-huquq hujjatlarini tarjima qilishda lingvokulturologik omillar. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
6. Hamidov, F. (2016). Sud-huquq hujjatlarini tarjima qilishda lingvokulturologik omillar. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.